

2017 -2018 yillar I -yarim yillik yakunlariga ko'ra Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari to'g'risida taxliliy MA'LUMOT


T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2017 y I-yarim yillik amalda	2018 y I-yarim yillik amalda	2017 yilning I-yarim yillikka nisbatan(%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	1035,9	1249,8	120,6
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	172,6*	218,7*	126,7
		km	39,5	97,7	247,3
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	25,6	82,7	323,0
		km	21,5	21,5	100,0
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash	mlrd.so'm	326,1	124,9	38,0
		km	2760,0	1342,7	49,0
4	Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	390,0	676,1	173,3
		km	850	1275	150,0
5	Sanoat ishlab chiqarish xajmi	mlrd.so'm	121,6	147,4	104,1
6	Yangi ishjoylarini yaratish	kishi	221	232	105,0
7	Qora metall chiqindilarini topshirish	tonna	8785	8792	100,0

* Xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga, xorijiy pudrat korxonalarini tomonidan bajarilgan ish hajmi bilan birga.

Qo'mita tizimidagi korxonalar vatashkilotlarda 2018 yilning I –yarim yilligi davomida Investitsiya dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **218,7 mlrd. so'mlik** qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2017 yilning xuddishu davriga nisbatan **126,7 foizni** tashkil etadi.

Bundan tashqari to'la ta'mirlashdasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **82,7 mlrd.so'mlik** ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning I –**yarim yillikka** nisbatan **323,0 foizga** oshgan.

2018 yilning I –yarim yillik yakunlari bo'yicha Respublikamizdagi **1342,7 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **41,0 km**, Andijonda **185,7 km**, Buxoroda **111,9 km**, Jizzaxda **48,1 km**, Qashqadaryoda **114,9 km**, Navoiyda **91,1 km**, Namanganda **143,9 km**, Samarqandda **111,8 km**, Surxandaryoda **173,6 km**, Sirdaryoda **36,7 km**, Toshkent viloyatida **84,1 km**, Farg'onada **121,8 km**, Xorazmda **64,8 km** hamda Toshkent shahrida **13,4 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Mintaqaviyichki yo'llar ta'miri hajmi esa o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **49,0 foizni** tashkil etadi.



2018 yil I–yarim yillik davomida Respublikabo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **676,1 kmdan iborat qismida** joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2017 yilining I–yarim yillikka qaraganda **173,3 foizni** tashkil etadi.

Qo'mita tizimidagi korxonlar tomonidan 2018 yil I–yarim yillikda **147,4 mlrd. so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur ko'rsatkich 2017 yilining I–yarim yillikka nisbatan **104,1 %ni** tashkil etganligini ko'rsatadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2018 yil I–yarim yillikda **232 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2017 yilining mos ravishdagi tegishli davriga qaraganda **105,0 foizni** tashkil etadi.

Korxonlar tomonidan qora metall chiqindilari topshirish ko'rsatkichi 2018 yil I–yarim yillikda **8792 tonnani** tashkil etadi. Bu – qariyb o'tgan yilgi darajada qolib, kamayishga yo'l qo'yilmagan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining 2018 yil I–yarim yillikda – umumiy bajarilgan ishlar xajmi – **1249,8 mlrd. so'mlikdan** iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning I–yarim yillikka nisbatan **120,6 foizni** tashkil etganligini ko'rsatadi.

